



ADIB AHMAD YUGNAKIYNING TIL ODOBIGA OID TO'RTLILKLARI
LINGVO-POETIK TAHLIL NATIJALARI

Hasanova Aziza Raxatjanovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Adib Ahmad Yugnakiy qalamiga mansub "Hibatu-l-haqoyiq" asarida til odobiga oid qarashlari to'rtliklar misolida ko'rib chiqilgan. Adibning ijodiy topqirligi, turkiy tilning nafaqat so'z boyligi, balki uning fonetik, morfologik hamda sintaktik xususiyatlaridan ham unumli foydalanganligini tegishli misollar vositasida ochiqlangan.

Tayanch so'zlar: Adib Ahmad Yugnakiy, "Hibatu-l-haqoyiq", to'rtlik, alliteratsiya, affiks, she'r san'atlari, so'z takrori, fonetika, morfologiya, sintaksis, uslub.

Аннотация: В данной статье на примере четырех рассмотрены взгляды на языковой этикет в произведении «Хибату-ль-хакайк» Адиба Ахмада Югнаки. На соответствующих примерах раскрывается творческая изобретательность писателя, эффективное использование им не только словарного запаса турецкого языка, но и его фонетических, морфологических и синтаксических особенностей.

Ключевые слова: Адиб Ахмад Югнаки, «Хибату-ль-хакайк», четверостишие, аллитерация, аффикс, поэтическое искусство, повторение слов, фонетика, морфология, синтаксис, стиль.

Summary: In this article, the views on language etiquette in the work "Hibatu-l-haqayq" by Adib Ahmad Yugnaki are considered as an example of four. The writer's creative ingenuity, his effective use of not only the vocabulary of the Turkish language, but also its phonetic, morphological and syntactic features, are revealed through relevant examples.

Key words: Adib Ahmad Yugnaki, "Hibatu-l-haqayq", quatrain, alliteration, affix, poetic arts, word repetition, phonetics, morphology, syntax, style.

KIRISH

Qadimgi turkiy adabiyotimiz durdona asarlari o'zida odob axloq, pand- nasihat, insonni komillikka yetaklovchi xislatlar majmui yoki aksincha uni zalolatga olib boruvchi illatlar bayoni haqidagi umumbashariy g'oyalarni eng asosiy o'ringa olib chiqqanligi bilan alohida diqqatga sazovor. Eng muhimi shundaki, ko'p asrlik insoniyat rivoji, jamiyat taraqqiyotiga qaramay hamon o'sha g'oyalar o'zining dolzarbligini, har zamon, har makonda ham har bir inson ma'naviy dunyosining eng qadrli xazinalaridan bo'lib yashab kelmoqda. Mana shunday durdona asarlardan biri Adib Ahmad Yugnakiy qalamiga mansub "Hibatu-l-haqoyiq" asaridir.

Foydalanilgan manba va metodlar

Adib Ahmadning "Hibatu-l-haqoyiq" asaridagi to'rtliklarni tadqiq qilishda biz asarning filologiya fanlari doktori, professor Q.Sodiqovning transkripsiyasi, talqini hamda tahlili asosidagi ilmiy nashridan foydalanildi[Bu haqda qarang 3].Bevosita qadimiy turkiy



tilga oid so'zlar izohida esa turkshunoslik tarixida yaratilgan eng yirik ilmiy lug'atlardan biri bo'lmish DTS dan foydalanildi. [bu haqda qarang 8].

To'rtliklar tahlilida bevosita ularni lingvistik tahlil usullarida, ya'ni fonetik, morfologik hamda sintaksis jihatdan o'rganildi. Shuningdek, Adibning adabiy mahoratini ochiqlashda poetik mahoratini dalillovchi vositalar, so'z san'ati, ularning berilish prinsiplari tadqiq qilindi.

Natijalar

Asar tuzilish jihatidan 14 bobdan tarkib topgan esa-da, avvalgi 5 ta bobi an'anaviy Allohga hamd, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) ga na't, chahoriyorlar (to'rt xalifa) madhi, Dod Sipohsolorbek madhi hamda asarning yozilish sababi kabi boblar navbati bilan beriladi. Asosiy qism 6- bobdan boshlanib, bilimning foydasi va bilimsizlik zarariga bag'ishlangan. Ilm olish hamda bilimsizlikdan uzoq turishni adib inson ma'naviy kamoloti uchun eng zarur sifat deb ta'kidlaydi. Ma'lum bo'ladiki, farzand kamoloti uchun ilm olishdan keyingi eng zarur xislat esa tilni tiyish va uning boshqa odoblaridir. Asarning yettinchi bobi, asosiy qismi tilni tiyish va uning boshqa odoblariga bag'ishlangan 12 ta to'rtlikda adib til ododiga oid mulohazalarini bayon etadiku, ularning tarkibida tilni behuda so'zlashdan tiyish, inson boshiga o'z tilidan keladigan ofatlar, rostgo'ylik ta'rifi, to'g'ri so'zdan keladigan foydalar, ko'ngil so'zini sir saqlash kabi pandnomalari berilgan.

Adib mazkur mavzu va muammoni yoritishda ko'proq to'rtlik shakliga tayangan. Bu, nazarimizda, mazkur janrning turkiy xalqlarning ham og'zaki, ham yozma adabiyotida keng tarqalgani hamda poetik ijodda muqim va muhim o'rin olgani bilan bog'lanib ketadi. Muhimi, ular o'sha davrlardagi turkiy xalqlarning badiiy tafakkur tarzidagi o'ziga xosliklarni belgilash imkonini beradi. Ta'kidlash joizki, ushbu namunalar turkiy xalqlarning umumiy madaniy saviyasi, axloqiy qarashlari, so'zga, so'z san'atiga bo'lgan munosabatlari haqida ham yorqin tasavvurlarni bera oladi.

Mavzu va muammoning yoritilishida muallif rang-barang shakl va usullardan foydalanadi. Ushbu mulohaza adibning so'z tanlashidan boshlab, ulardan foydalanishgacha, mavzuni yoritishidan boshlab ulardagi hayotiy haqiqatning yuksak badiiy mantiq doirasida ifodalanishgacha bo'lgan jarayonlarni qamraydi.

Tabiiyki, har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu o'ziga xosliklar tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va uslubiy jihatalari bilan bog'liq holda yuzaga chiqadi. Mana shu jarayon esa har bir mahoratli qalam ustasida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Esitkil biliglig negü tep ayup,
Adablar baši til, kodāzmaĸ teyür.
Tilij bektā tutyıl, tişij sīnmasun,
Xali çiqsa bektin, tişijni sıyur.

Avvalo, she'r shakli e'tiborni tortadi. U to'rtlik shaklida yuzaga chiqqan. Adib to'rtlikning eng ommalashgan shakli: a-a-b-a tarzidagi ko'rinishidan foydalangan. Asar Qoraxoniylar davrida amal qilgan eski turkiy til yozma adabiy tilida yozilgani bois, undagi ayrim so'zlar bugungi adabiy tilimiz iste'molidan chiqib ketgan bo'lsa, ayrimlari qisman tovush o'zgarishlariga uchragan.



Qadimgi turkiy tilning temir qonuni bo'lmish singarmanizm hodisasi asosida o'qiydigan bo'lsak, baytdagi birinchi so'zni bugungi kundagi "eshitgil" tarzida emas, "e'sitkil" tarzida o'qishimiz maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, singarmanizm hodisasida tilda nafaqat unli tovushlarning ingichka yo'g'onligi bo'yicha o'zaro moslashishi, balki undosh tovushlarning ham jarangli hamda jarangsiz xususiyati, ingichka hamda yo'g'on talaffuzi asosida o'zaro uyg'unlik hosil qilinishi nazarda tutiladi[3, 124]. Shu jihatdan olib qarajak ham, so'zning o'zak qismi ingichka , jarangsiz <t> tovushi bilan tugashi, unga jarangsiz, ingichka <k> bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilishini talab qilgan.

E'sitkil – eshitgin

Biliglig – bilimli (donishmand)

Adablar – odob

Ko'dazmak – saqlamoq

Teyur – dir. Bu so'z asarning B hamda C nusxalarida turur shaklida kelgan [7, 79]

bek – berk, yopiq

xali – agar

siyur – sindirur. [Qarang]

Nasriy bayoni

Quloq tutki, bilimli donishmandlar odoblar boshi tildir, va uni saqlash kerak deb aytadi. Tiling tishingni sindirmasin desang uni yopiq joyda (tishlar orasida) saqlagin. Agar qafasdan chiqsa, u tishingni sindiradi.

Adib o'z fikrini berishda avval o'quvchiga yuzlanib, uning diqqatini qaratish uchun II shaxs buyruq maylida "eshitgin" – deya murojaat qiladi. Odatda bir ma'lumot berilishidan oldin tinglovchining diqqatini o'ziga qaratish ohangining ishtiroki ma'lumotning o'ta jiddiy, muhimligidan dalolatdir. Agar bu oddiy bir fikr bo'lganida edi, uni shunchaki xabarini yetkazish bilan kifoyalanar edi. Adib o'zining emas, donishmand, bilim va tajribaga ega shaxsga daxldor bo'lgan mulohazalarni aytayotgani uchun ham, I shaxs tilidan emas, aynan III shaxs tilidan izhor etib, tinglovchini aytmoqchi bo'lgan fikrining jiddiyligiga diqqat qaratishiga urg'u beradi! U so'zlar oddiy odam, yoki xalq, yoki o'zining emas, aql-zakovatda yetuk inson- "biliglig"ning gapi ekanligini ta'kidlaydi. Bu bilan adib tinglovchida diqqatni qaratish bilan birga, aytilayotgan fikrga e'tiroz yoki qarshilik ko'rsatishga, zarracha bo'lsa ham shubhaga borishiga o'rin qoldirmaydi. Donishmand fikri esa quyidagicha "Odobning boshi tildir va uni asrash kerak".

Ushbu misralarda adib Ahmadning so'zlar iste'molida mohirona yondashuvi yaqqol seziladi. O'sha davr xalq og'zaki ijodi namunasidagi ushbu maqolni oddiy xalq emas, donishmand, bilimli shaxs tilidan aytib, mazmun jihatdan tugallab ham qo'yadi: - "odoblar boshi bo'lgan tilni asragin!"

Uchinchi misrada esa, qanday "ko'dazmak" , ya'ni asramoq kerakligi haqida kengroq aniqroq va maxsus tarzda urg'ulash vazifasini ado etadi: "tilni qafasda asragil, toki tishingni sindirmasin". Ushbu misralarda "til", "tish" "bekta tutmoq", "sinmoq" so'zlari bilan tanosub san'atini yaratgan bo'lsa ayni mulohazaga buyruq ohangini singdirish bilan amr san'atini qo'llagan.



To'rtlikda yashirin tashbeh, ya'ni istiora san'athosil bo'lgan. Tishni nima sindiradi? Ana shunday "adabiy qaramon" – "bo'ri", "yovuz kuch"dir. Biz mazkur obrazni qadimgi turkiy adabiyotning yana bir yirik namunasi "Qutadg'u bilig" sahifalarida ham uchratamiz [bu haqda qarang 4.]

Bevosita aytilmoqchi bo'lgan fikrga diqqat qilinsa, adib biologik organ til hamda tishlar misolida o'quvchi ko'z oldiga, unga juda tanish holat (Tish sinishi yoki tish og'rig'i bilan bog'liq holat)ni esga oladi. Bilamizki inson boshidan kechiradigan eng azobli og'riqlardan biri bu tish og'rig'i. Adib esa tinglovchiga tilni tiymaslik oqibatidan xabar beradiki, tilni asramaslik qanday dardu-sitamlarga olib kelishini ko'rsatib beradi. Aslida, tabiat va jamiyat hodisalarini yonma-yon keltirish orqali adabiy ta'sirchanlikni yuzaga keltirish badiiy ijoddagi qadimiy qonuniyatlardan biridir. Bundan, Adib Ahmad Yugnakiyning ham mazkur qonuniyatlardan puxta xabardorligi oshkor bo'ladi.

Bu misralar odobdan, husni xulqni o'rganayotgan yosh avlod uchun ham juda mafaatli ekanligi sezilib turadi. Chunki tish bilan bog'liq dardni jamiyatning juda kata qismi, hatto maktab yoshidagi jamiki bolalar ham boshidan kechiradi. Demak bu dard hammasiga juda tanish va og'riqli. Adib esa aynan o'sha "og'riqli" joyni eslatish bilan, tinglovchilarni "ogohlantiradi".

Oxirgi misrada ma'no takrorlanadi, lekin ancha bo'rttiriladi. Agar til "bek"dan chiqsa, tishingni sindiradi. Tashbeh san'atidan unumli foydalanib yaratilgan ushbu misrada, yomon natijaga olib keladigan holatni aniq ko'rish mumkin – tilning ramziy qafasdan chiqishi. Bu misralarda albatta adib umuman tilni tashqariga chiqarmaslik – gapirmaslik haqida emas, uni o'rinsiz ishlatmaslik, behuda, ko'p gapirishning ayanchli oqibatlari haqida ogohlantirish bermoqda.

Mazkur mavzu keyingi to'rtliklarda davom ettiriladi:

Sanip so'zlagan er so'zi so'z sayi,

Öküš yaňşayan til- unulmas yayi.

Sözün boşlay idma, yīya tut tiliñ,

Yetar başqa bir kün bu til boşlayi.

Lug'at

sanip- o'ylab so'zlagan

so'z sayi- so'zning yaxshisi

öküş – ko'p

yaňşayan- vaysagan

unulmas – unamaydigan, ko'nmaydigan, murosaga kelmaydigan

yayi- yov, dushman

boşlay- bo'sh

idma- etma

yīya tut- mahkam tut

Ilk misra to'rtlikning tayanch nuqtasidir. Unda birdaniga bir necha muhim tayanch nuqtalar haqida gap boradi. Bular:

1. Bildirilayotgan mulohazadagi jiddiyat: so'z sayi

2. Uning kim tomonidan aytilayotgani: er so'zi



3. Aytilayotgan soʻz (fikr, mulohaza)ning alohida eʼtiborlarga molikligi: sanib soʻzlagan

Demak, aytilayotgan soʻz ham, bu soʻzlarning egasi ham tasodifiy emas. Tinglovchi nihoyatda bir muhim va jiddiy holatdan ogohlantirilmoqda: aytilayotgan soʻzga eʼtibor berish shart, zero, ular tanlangan, saralangan soʻzlardir. Buning ustiga u tasodifiy kishidan emas, balki ancha mashhur va eʼtirof etilgan shaxs – er kishidan kelmoqda. Bu nihoyatda jiddiy axborot. Zero, qadimgi turkiy adabiyotda “er” faqat erkak jinsiga mansub shaxsnigina emas, ayni paytda oʻzining jasorati, kuchi, quvvati bilan ajralib turadigan mard insonni ham anglatadi.

Ushbu misrada adib soʻz haqidagi fikrlarini oʻziga xos ohangdorlikni taʼminlagan “s” tovushli soʻzlarni ipga marjon qilib terib qoʻyganday ifodalaydi. Bu oʻrinda “soʻzlagan”, “soʻzi”, “soʻz” soʻzlari bilan ishtiyoq va takrir sanʼati namunasining ham guvohi boʻlamiz. Ikkinchi misrada tazodning unumli ishlatilishi natijasida oʻquvchiga birinchi toʻrtlikdagi fikrni yanada aniqroq ifodalaydi. Oʻquvchida paydo boʻlgan Qanday soʻz tishni sindiradi?, Qanday soʻz boshga balo keltiruvchi dushman boʻladi? degan savollariga aniq – “öküş yaňşayan til” – koʻp vaysaydigan tildir degan javobni beradi!

Keyingi misralarda adib yana fikrlar ketma ketligini berib, maʼnoni kuchaytiradi, oʻz pandlarini yosh oʻquvchi qulogʻiga quyishga urinadi. Yaʼni soʻzni boʻsh qoʻyma, tilni mahkam tut, chunki agar tilni boʻsh qoʻysang u bir kun boshingga yetadi, sening umringga zavol yetkazadi deya ogohlantirish beradi. Misralardagi mutlaq qofiyalar ham toʻrtlik markazidagi asosiy maʼno yukini oʻzida jamlagan “sayi”, “yayi”, “boʻshlayi” boʻlsa, ham oʻziga xos ohangdorlikni taʼminlay olgan. Misralardagi ohangdorlikni nafaqat tovushlar takrori, qofiyalarning toʻgʻri tanlovi, shuningdek, jumalarning sintaktik qurilishi ham taʼminlayotganini alohida taʼkidlash joiz. Ixcham, loʻnda, xalqona ohangni yuzaga chiqarish uchun avvalo gapning sintaktik qurilishi asosiy vazifani bajaradi. Birinchi misradagi “Sanib soʻzlagan er soʻzi soʻz sayi” jumlasida birgina “soʻzi”ni izohlash uchun uchta izohlovchi qatnashgan, ularni oʻzaro bir birini taqozo etadigan maʼnolar jamlanmasiga qiyoslasak boʻladi. Yaʼni kitobxonda oldindan paydo boʻlishi mumkin boʻlgan savollar aniq: qanday soʻz yaxshi soʻzdir? – Javob: “er soʻzi”, yana savol tugʻilishi mumkin: qanday er soʻzi? Endi javob yanada oydinroq beriladi: “soʻzini oʻylab gapiradigan er kishining soʻzi”- deb toʻliq fikrni beradi jumalalarda. Navbatdagi til taʼrifida ham xuddi shu uslubdan foydalanilgan. Balo keltiruvchi dushman deya taʼriflangan til izohida ham ikkita izohlovchi bilan maʼnoni aniq, izohga hojat qoldirmay berilgani koʻrinadi. Qanday til dushmanday balo olib keladi? “öküş yaňşayan til” javobida adibning soʻz tanlashdagi yuksak mahorati aks etgan. Beʼmani soʻzlar gapirish haqida aytish uchun aynan “yaňşayan” soʻzi juda oʻrinli tanlangan, bizningcha. Oddiy “gapirmoq”, “soʻzlamoq” feʼllarini emas aynan salbiy maʼno boʻyoqdorligi kuchli boʻlgan “vaysamoq”ning tanlanishi ifodalanmoqchi boʻlgan salbiy tushunchani aniqroq, tezroq bildirish imkonini bergan. Yana “yaňşayan”ni oʻzi bilan kifoyalanmay, “öküş”ligini ham alohida taʼkidlaydiki, bundan murod oʻquvchi uning asl mohiyatini anglasin, pandlarga quloq tutsin.

Xulosa

Bularning barchasi Adib Ahmadning nutq odobi haqidagi qarashlarining teran tomirlarga egaligini, ularning qadimiy urf-odatlar, milliy-maʼnaviy anʼanalar bilan zich



aloqadorligini ko'rsatib turibdi. Muhimi, ularning bugungi kunimiz uchun ham nihoyatda zarur va kerakli xulosalardan iborat ekanligida. Bu madaniy meros zamiridagi boy va hayotbaxsh o'gitlarni zamondoshlarimiz ongu shuuriga munosib tarzda yetkazish soha mutaxassisleri zimmasidagi asosiy vazifalardan biri bo'lib qolaveradi.

REFERENCES:

1. Исҳоқов. Ё. "Сўз санъати сўзлиги" -- Тошкент: Зарқалам, 2006. -126 б.
2. Древнетюркский словарь Л.: "Наука", 1969. – 676 с.
3. Содиқов Қ. "Туркий ёзма ёдгорликлар тили: Адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши" Т.: 2006 й. – 124 б.
4. Тўхлиев. Б "Юсуф Хос Ҳожиб ва туркий халқлар фольклори." Т.: Bayoz, 2013.- 115б
5. Хўжанова Г. "Ҳибат –ул ҳақойиқ". Т.: Ғ.Ғуллом номидаги адабиёт ва санъат нашр., 2001. – 112 б.
6. Ҳожиахмедов А. "Шеърый санъатлар ва мумтоз қофия" . Т:- Шарқ. 1998.- 160 б.
7. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. "Фунуну-л-балоға"/ масъул муҳаррир Б.Ҳасанов. – Т.: Хази́на, 1996.
8. Югнакий, Адиб Аҳмад "Ҳибат –ул ҳақойиқ" . Қ.Содиқов транскрипцияси, талқини ва таҳлилида. – Т.: Akademnashr, 2019. – 168 б.